

SO‘Z MA’NOSINING KONVERSIYA NATIJASIDA SUBYEKTIV BO‘YOQ KASB ETISHI

Mirzakarimova Z.D.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

TDTU Olmaliq filiali

Annotatsiya: Maqolada so‘z ma’nosining konversiya natijasida subyektiv bo‘yoq hosil qilishi masalasi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: konversiya, ma’no ko‘chish yo‘llari, leksik ma’no, subyektiv bo‘yoq, leksik konversiya, sintaktik konversiya, substantivatsiya, adyektivatsiya, propolinalizatsiya, konyunksionalizatsiya.

Konversiya bir turkumdagi so‘z boshqa turkumga ko‘chishidir¹. O‘zbek tilidagi ko‘pgina so‘zlar shu xususiyatga ega, ya’ni bir turkumdagi so‘z ma’lum leksik ma’nosi bilan boshqa so‘z turkum vazifasini bajarib keladi. Shuning natijasida mazkur ma’no subyektiv bo‘yoq kasb etadi. Konversiya hodisasi turkolog tilshunoslar tomonidan yetarlicha ishlangan².

Ular konversiyani ikki turga bo‘lib ko‘rsatishadi:

1. Leksik konversiya;
2. Sintaktik konversiya³;

So‘zlar konversiyasi, ya’ni so‘zlarning boshqa turkumga ko‘chishi har doim ham, subyektiv bo‘yoqni yuzaga keltiravermaydi. Xususan, leksik konversiya natijasida subyektiv bo‘yoq hosil bo‘lmaydi.

Yuqoridagi tilshunoslarning ko‘rsatishicha, sintaktik konversiya bir necha guruhga bo‘linadi: ular substantivatsiya, adyektivatsiya, propolinalizatsiya, konyunksionalizatsiya kabi nomlar bilan ataladi.

Biz sintaktik konversiyaning barcha turlari haqida to‘xtalmaymiz. Bu o‘rinda biz faqat sintaktik substantivatsiyasi bilan adyektivatsiya yuzasidan fikr yuritamiz.

1. Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zsek adabiy tili. - Toshkent, 2004. - B. 76.

2. Suvonova R. O‘zbek tilida metonimiya/f.f.nom.diss.avtoref. - Toshkent, 2001. - B. 14.

3. O‘sha asar. - B. 10

Chunki subyektiv bo‘yoqqa faqat sifat substantivatsiyasi bilan ot adyektivatsiyasiga uchragan so‘zlar ma’nosigina ega bo‘lishi mumkin. Tartib nuqtai nazaridan, avval sifat substantivatsiyasini ko‘rib chiqamiz.

Sifat turkumiga oid so‘zlar ma’lum semantikaga ega bo‘lganlaridagina

sintaktik substantivatsiyaga uchrashi va substantivatsiya uchun asos bo'lgan ma'nosi subyektiv bo'yoq kasb etishi mumkin. Buning uchun sifat turkumiga oid so'zlar quyidagicha semantikaga ega bo'lishi kerak.

1. Sifat turkumi doirasidagi so'zlar rang bildiruvchi ma'nolari bo'yicha sintaktik substantivatsiyaga uchrab, subyektiv bo'yoqqa ega bo'ladi. Sintaktik substantivatsiyaga uchragan sifat turkumidagi so'zning rang bildiruvchi ma'nosi ijobiy subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin. Masalan:

*Uxla o'g'lim, kenja toyim, oppog'im,
Umrinning mard pospon, shovvozi bor. (G'.G'ulom).*

Bu gapdagi oppoq so'zi rangni ifoda etib kelayapti. Asli sifat turkumiga oid shu so'z shu ma'nosi asosida sintaktik substantivatsiyaga uchragan, ya'ni otga ko'chib subyektiv bo'yoq kasb etgan. Oppoq so'zi oq so'zining intensiv formasi bo'lib, mo'tabar belgini ifoda etadi. Sifat turkumiga oid so'z rang bildiruvchi ma'nosi vositasida sintaktik substantivatsiyaga uchrashi va mazkur ijobiy subyektiv bo'yoq kasb etishiga quyida yana bir necha misol keltirishimiz mumkin:

*Hali yoshsan, bilmaysan oqu- qorani,
Joyshoya ber , qabul o'lsin, nazr qilgin porani. (H.N).
Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar.(Maqol).*

Yuqoridagi gaplarda sifat turkumiga mansub oqu- qora, qora so'zlari sintaktik substantivatsiya natijasida ijobiy subyektiv bo'yoq kasb etgan. Ular ma'nosining ijobiy subyektiv bo'yog'i ham oppoq so'zi ma'nosining bo'yog'iga o'xshash yo'l bilan yuzaga kelgan.

Demak, sifat turkumi doirasidagi so'zlar rang anglatuvchi ma'nosi vositasida sintaktik substantivatsiyaga uchraganda faqat ijobiy subyektiv bo'yoq kasb etar ekan.

2.Sifat turkumiga oid so'zlar holat bildiruvchi vositasida ham substantivatsiyaga uchrashi va subyektiv bo'yoqqa ega bo'lishi mumkin.Masalan:

*Gar ko'cha uzra qo'ysa, hech ahmoq olmas oni
Bir dardisar balodur, yuz yil turar mashinam (H.N).*

Bu gapda sifat turkumiga oid ahmoq so'zi monosemantik bo'lib, mavjud leksik ma'nosi bilan sintaktik substantivatsiyaga uchragan va o'sha ma'nosi salbiy subyektiv bo'yoq kasb etgan.

Sintaktik substantivatsiya natijasida sifat turkumi doirasidagi so'zlar ma'nosining salbiy subyektiv bo'yoq kasb etishi uchun quyida yana bir necha misol keltiramiz.

*Bu dunyoda bor bo'lsa-ya bag'ri butun
Qog'ozdan qozon qilay guldani o'tin. (G'.G'ulom).
Tezroq yo'qoling, shum, mal'un
Shaytonsifat xonsolar. (H.N).*

Bu gaplarda sifat turkumiga oid butun, shum so'zlari sintaktik substantivatsiyaga uchragani tufayli salbiy subyektiv bo'yoq kasb etgan.

3. Sifat turkumi doirasidagi soʻzlar xususiyat bildiruvchi maʼnolari vositasida ham sintaktik substantivatsiyaga uchrashi va oʻsha maʼnolari subyektiv boʻyoqqa ega boʻlishi mumkin. Masalan: *U, bu bedavolarni qishloq guzaridan qanday qilib olib oʻtaman, degan xayol bilan band edi* (S.Ahmad).

Bu gapdagi sifat turkumiga oid bedavo soʻzi oʻzining yagona maʼnosi boʻyicha sintaktik substantivatsiyaga uchradi va salbiy subyektiv boʻyoq kasb etgan.

Sintaktik substantivatsiya natijasida sifat turkumiga oid soʻzlarning xususiyat ifoda etuvchi maʼnosi salbiy subyektiv boʻyoqqa ega boʻlganligiga yana bir necha misol keltirish mumkin:

Oradan chiq, kosa koʻz

Xumcha qorin, tekinxoʻr (H.N).

Afsus, oʻgʻil egilmadi... qotgan tayoq

Ufatlari boʻldi uning uch-toʻrt sayoq (T.Yoʻldosh).

Bu gaplardagi sintaktik substantivatsiyaga uchragan sifat turkumiga oid tekinxoʻr, sayoq soʻzlarida ifoda etilgan maʼnolar salbiy subyektiv boʻyoq kasb etgan. Bu soʻzlar maʼnosining salbiy subyektiv boʻyogʻi ham bedavo soʻzi maʼnosining boʻyogʻiga oʻxshash yoʻl bilan yuzaga kelgan.

5. Sintaktik substantivatsiya natijasida sifat turkumiga oid muhim belgi ifoda etuvchi soʻzlar maʼnosi ham subyektiv boʻyoqqa ega boʻladi. Masalan: *Grajdanlarni koʻrganda Barno ham nazarida koʻnglida miltirtab turgan bir chiroq erib soʻnganday boʻldi* (O.Yoqubov).

Bu gapda sifat turkumiga oid grajdanlar soʻzi muhim belgi ifoda etuvchi maʼnosi sintaktik substantivatsiyaga uchrab, shu maʼnosi salbiy subyektiv boʻyoq kasb etishiga yana misol keltiramiz:

Boylar boy oʻlur ilmsiz yashab,

Oriqlarini semizi oshab (H.N).

Bu gap ham xuddi yuqoridagi gap singari salbiy subyektiv boʻyoq kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtojiev M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I jild. - Toshkent: Universitet, 2004. - B. 76.
2. Mirzakarimova, Z. D., Ikromjon Esanboyevich Uzoqov, and Bobirmirza Bakhtiyar Ogli Yusupov. "Types of words denoting the degree." *Science and Education* 5.12 (2024): 349-352.
3. Mirzakarimova, Z. D. "DARAJA BILDIRUVCHI SOʻZLARNING TURLARI." *International Conference*. Vol. 1. No. 9. 2024.
4. Mirzakarimova, Z. D., Ikromjon Esanboyevich Uzoqov, and Bobirmirza Bakhtiyar Ogli Yusupov. "Types of words denoting the degree." *Science and Education* 5.12 (2024): 349-352.
5. Mirzakarimova, Z. D., and M. N. Qosimova. "OʻZGA TILLI GURUHLARDA TALABALAR OGʻZAKI VA YOZMA NUTQINI OʻSTIRISH METODIKASI"

GA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL TA'LIM
METODLARI." *Gospodarka i Innowacje*. 35 (2023): 11-16.

6.Mirzakarimova, Z. D. "The acquisition of a subjective color as a result of the
conversion of the meaning of the word." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL
MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1404-1413.